Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-iyul oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 % o‘sdi. Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 27,1 foizni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 106,1 % ga o‘sdi.




***2019 yil yanvar-iyul oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo’shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o’sish sur’atlari***

*(o’tgan yilning shu davriga nisbatan, % da )*

2018 yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o`sish sur`atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o`sish sur`atlari Olmazor tumani 123,9 Yakkasaroy tumani 118,1 %, Shayxontohur tumani 112,8 %, Sergeli tumani 107,2 % Yunusobod tumani 105,7 %, da qayd etilgan bo’lsa, ayrim tumanlarda jumladan Uchtepa tumani 98,8 % Yashnobod tumani 96,8 % nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-iyul

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 1082,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 113,3 % ga o’sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 5,3 % ni tashkil etdi.




Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Yunusobod 19,8 %, Shayxontohur tumani 12,2 %, Yakkasaroy tumani 10,7 %, Sergeli tumani 10,2 %, tashkil etgan bo’lsa, Yashnobod tumani 6,1 %, Uchtepa tumani 5,4 % va Bektemir tumani 1,8 % ulush bilan eng past ko’rsatkichni qayd etdi.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 27,1 % ni tashkil etib, chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani (15,8 %), Shayxontohur tumani (13,2 %), Olmazor tumani va Uchtepa tumani (9,5 %), bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir etdi.

***Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi***

*(jamiga nisbatan, foizda)*



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 7960,3 ming. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko`rsatkichlari Bektemir tumani (46834,5 ming.so`m), Chilonzor tumani (14047,6 ming.so`m), Yakkasaroy tumani (11866,8 ming.so`m), Mirobod tumani (11845,3 ming.so`m) Uchtepa (7001,4 ming.so`m), kuzatildi.

***Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi***

| | Ming so'm | O'sish sur'ati |
|---|---|---|
| Toshkent sh | 7960,3 | 104,0 |
| Uchtepa | 7001,4 | 97,7 |
| Bektemir | 46834,5 | 98,3 |
| Yunusobod | 6902,2 | 103,6 |
| Mirzo-Ulug'bek | 4538,7 | 103,3 |
| Mirobod | 11845,7 | 102,4 |
| Shayxontohur | 6871,2 | 110,6 |
| Olmazor | 3821,6 | 121,7 |
| Sergeli | 9185,1 | 102,6 |
| Yakkasaroy | 11866,8 | 116,9 |
| Yashnobod | 5240,6 | 93,3 |

***Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi***

*(o'sish su'rati o'tgan yilga nisbatan, foizda)*




2019 yil yanvar-iyul oyida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahar bo`yicha aholi jon boshiga 7960,3 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 4,0 % ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-iyul oyida o`tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sgan Olmazor tumani 121,7 % Yakkasaroy tumani 116,9 %, Mirzo-Ulug'bek tumani 103,3 %, va Mirobod tumani 102,4 % tumanlar hissasiga to`g`ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha o'sish sur'ati eng kam ko`rsatkichlar Bektemir tumani 98,3 %, Yashnobod tumani 93,3 % qayd etilgan.

***Kichik korxona va Mikrofirmalar ulushi***
*(jami chakana savdo aylanmasidan)*




Kichik korxona va mikrofirmalar jami chakana savdo tovar aylanmasida ulush eng katta bo'lgan tumanlar: Mirobod tumani (58,4 %), Chilonzor tumani (54,5 %), Mirzo-Ulug'bek tumani (52,9 %) Sergeli tumani (51,0 %). Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkichlarga ega tumanlar, Uchtepa tumani (29,1 %) Bektemir tumani (12,8 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

## 2019 yil yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo

2019 yil yanvar-iyul oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 21313,0 mlrd. so`mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 109,4 % ni tashkil qildi.



Kichik korxona va mikrofirmalar 17545,1 mlrd. so'mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,3 % ni tashkil qildi.



Kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko’p ulushga ega tumanlarga Shayxontohur tumani (96,9 %), Uchtepa tumani (96,1 %), Bektemir tumani (93,2 %) va Mirobod tumani (89,1 %) eng past ulush esa Yakkasaroy tumani (74,3 %), Olmazor tumani (73,6 %) va Sergeli tumani (70,0 %) to’g’ri kelgan.

***Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi jami savdoga nisbatan (%)***



***Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi***

*(jamiga nisbatan foizda)*




Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Mirzo-Ulug'bek tumani 12,9 %, Olmazor tumani 12,7 %, Yakkasaroy tumani 12,9 %, Mirobod tumani 11,3 %, Chilonzor tumani 10,9 % tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir tumanlar ya'ni Yashnobod tumani 7,8 %, Sergeli tumani 7,6 %, Uchtepa tumani 5,2 %, Bektemir tumani 1,5 %,  jamiga nisbatan eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulgurji tovar aylanmasidagi jamiga nisbatan ulushi

*(jamiga nisbatan foizda)*




Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori Mirzo-Ulug'bek tumani 10,5 %, Mirobod tumani 10,1 %, Yakkasaroy tumani 9,6 %, Olmazor tumani va Chilonzor tumani 9,4 %, hamda eng kam ko'rsatkichni Bektemir tumani 1,4 % qayd etgan.

Umumiy tovar aylanmasining 8008,3 mlrd so'mi yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxlarning hisobiga tog'ri keladi. 2018 yilning shu davriga nisbatan 7,7 % ga ko'paygan. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 39,9 % ga teng bo'ldi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda**

*(2019 yanvar-iyul holatiga)*



# Toshkent shahrida chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar

*(jami chakana savdodagi ulushi)*








# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-iyul

## Toshkent shahrida chakana savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar

*(tumanlarning ulushi)*








## Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi

*(jamiga nisbatan foizda)*




Yirik korxonalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo’lgan tumanlar Olmazor tumani 19,0 %, Yakkasaroy tumani 18,8 %, Mirzo-Ulug'bek tumani 13,9 % ni tashkil etgan bo’lsa, shu bilan bir qatorda ba’zi bir tumanlar ya’ni Shayhontoxur tumani 1,6 %, Uchtepa tumani 1,2 %, Bektemir tumani 0,6 % ko’rsatkichlarni qayd etdi.

## Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi

*(jamiga nisbatan foizda)*




Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Chilonzor tumani 24,9 %, Yakkasaroy tumani 13,6 %, Shayhontohur tumani 11,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda Bektemir tumani 1,2 % Uchtepa tumani 3,8 % Mirzo-Ulug'bek tumani 5,7 % eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakillari

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakillari bo'yicha quydagicha ifodalanadi.

Davlat mulki 120,6 mlrd so'mni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,6 % ni tashkil etadi.

Nodavlat mulki 19972,8 mlrd so'mni umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 99,4 % ni ashkil etadi.

### Davlat va nodavlat shakillari



## Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi

Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasi 2016 yilga nisbatan 9016,6 mlrd so'mni, 2017 yilga nisbatan 7047,8 mlrd so'mni 2018 yilga esa 3059,1 mlrd so'mni tashkil qildi.

***Toshkent shahrida chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi***

*(2019 yil yanvar-iyul mlrd so'm)*



# TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

2019 yil yanvar-iyul

TOSHSTAT

Ташқи иқтисодий фаолият ва савдо статистикаси бўлими